

ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING HARBIY YURISHLARI YO'NALISHLARI

Bekchanova Sarvinoz San'at qizi

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix(mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)yo'nalish 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning Ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, O'rta osiyoga harbiy yurishlari haqida o'rganadi. Aleksandr Makedonskiyning hayotiy faoliyati haqidagi tadqiqotlarni qisqacha umumlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga Aleksandr haqida o'rganish, davriy sanalarni aniqlash, tarixiy nuqtai nazaridan obyektiv taxlil etish va boshqa qator masalalar ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Makedoniya, Filipp II, Aleksandriya, Sharqqa yurish, Spitamén, Doro III, Satraplik

Аннотация: Данная статья рассматривает социально-экономическую жизнь Александра Македонского, его военные походы в Среднюю Азию, помогает кратко обобщить исследования жизни Александра Македонского. При этом изучение Александра, определение периодических дат, объективный анализ с исторической точки зрения и другие вопросы являются основными целями данного исследования.

Ключевые слова: Македония, Филипп II, Александрия, Поход на Восток, Спитамен, Дарий III, Сатрап.

Abstract: This article examines the socio-economic life of Alexander the Great, his military campaigns to Central Asia. It helps to briefly summarize the research on the life of Alexander the Great. At the same time, learning about Alexander, determining periodic dates, objective analysis from a historical point of view, and other issues are the main goals of this research.

Key words: Macedonia, Philip II, Alexandria, March to the East, Spitamén, Darius III, Satrap

Aleksandr Makedonskiy (e.a. 356-323) - Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan. 336-yil Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan. Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo'lgan. Ba'zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik qurishga bo'lgan urinishlaridan ko'plab darslar chiqarish mumkin. Aleksandr

favqulodda qobiliyatli hukmdor edi. Uning qo'1 ostidagi ayrimlar xuddi Xudoga sig'ingan kabi uning oldida tiz cho'kkan. U juda yosh — 33 ga to'lmay vafot etgan bo'lsa-da, ko'plab ishlarni amalga oshirishga ulgurgan. Ammo uning buyukligi faqat harbiy karyerasiga bog'liq. Aleksandr harbiy strategiya va taktikada daholig'ini ko'rsatgan. Qayerga yurish qilmasin o'zining askarlaridan ko'proq qo'shinga duch kelgan, biroq doim g'alaba qozongan. Aleksandr bir vaqtning o'zida shoh bo'lish bilan birga, mohir sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi, diplomat va xalq yetakchisi funksiyalarini bajarardi. Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O'z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp Aleksandrden yaxshiroq shoh edi. Aleksandrden farqli o'laroq u o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligidan qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqning yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrden yaxshiroq deya hisoblagan.

Aleksandr piyanista bo'lmasa-da, ko'p ichardi. Makedoniyaliklar vaqti-vaqti bilan ichkilik ziyofatlarini uyushtirib turgan bo'lib, u ba'zida bir necha kunga cho'zilib ketgan. Eramizdan oldingi 324-yilda uyushtirilgan mashhur ziyofatda Aleksandr kim ko'p ichish bo'yicha musobaqada qatnashgan. Shu kuni o'ndan ortiq inson ortiqcha alkogol iste'mol qilgani uchun vafot etgandi. Aleksandr 33 yoshga to'lishidan bir necha oy oldin vafot etgan. Uning o'limi borasida ko'plab konspirologik versiyalar mavjud, biroq u tabiiy o'lim topgandi. Aleksandr Hindistonda og'ir yaralangan. Tabib uning ko'ksiga tekkan o'qni chiqarib olganida yaradan qon bilan birga havo ham chiqib boshlagan. Bu o'pkaning teshilganidan dalolat beradi. Aleksandr o'ziga kelishi uchun bir necha kun kerak bo'lgan va u shu qadar kuchsizlanib qolganidan shohni lagerga ko'tarib olib borishgan. U juda ko'p yaralangan bo'lsa-da, bo'kib ichish odatini tashlamagandi.

Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari. Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang'iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo'ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma'lumotlariga ko'ra bu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqago'zar, Termez atroflari va Sho'rob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, Aleksandr qo'shinlari qoplarga somon-xashak to'ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida Yozma manbalarda ma'lumotlar saqlangan. Aleksandr qo'shinlari daryodan o'tgach Bessni ta'qib etib «Sug'd viloyati Navtakaga» yo'l oladilar. Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqegini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil.avv. 329 yil ko'zida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi.

O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil.avv. 327 yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

Xulosa: Aleksandr Makedonskiy o'z davrining qudratli hukmdorlaridan biri. Yosh bo'lishiga qaramasdan ulkan imperiya va katta hududlarni egallagan davlat asoschisi hisoblanadi. Yoshilk chog'larida Aristoteldan kerakli bilimlarni egallagan. Davlat boshqaruv ishlari haqida malumotlarga ega bo'lganligi haqida faktlar mavjud. Aleksandr makedonskiyning harbiy yurishlari tizimli bo'lgan. O'z qo'shinidan ko'proq bo'lgan dushmanlarni ham yenggan. Shuning uchun ham Rim tarixchilari tomonidan "Buyuk" deb ulug'langan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Kabirov - "Qadimgi Sharq Tarixi" "Tafakkur" Toshkent 2016. 276-280-betlar
2. R.Rajabov – "Qadimgi dunyo Tarixi" "Fan va Texnologiya" Toshkent 2009. 289-bet
3. D. Urakov, R. Tursunov, A. Biykuziyev, B. Xaynazarov – "Jaxon Tarixi" - "Innovatsiya-Ziyo" Toshkent 2020. 195-220-betlar
4. Q. Usmonov, M. sodiqov, S. Burxonova – "Iqtisod – Moliya" Toshkent 2016. 44-48-betlar